

## SAID AHMAD XOTIRALARIDA “ABDULLA QAHHOR” TASVIRI.

**Norqulova Rayhon**

Toshkent shahar Chilonzor tumani 202- maktab o‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Said Ahmad uning qadrlil va muhtaram ustozlari, do‘st birodarlari va shogirdlari haqidagi hayotiy voqealar, ularning ijod olami haqida yozilgan yodnomalardan iborat “Yo‘qotganlarim va topganlarim” asari haqida ma‘lumot berib o‘tiladi. Maqolada alohida e‘tirof etilgan adib, Said Ahmadni adabiyot olamiga chorlagan ulug‘ yozuvchi Abdulla Qahhor haqidadir. Maqolada Said Ahmad ijod yo‘lida Abdulla Qahhordek ulug‘ so‘z ustasining ta‘siri borligi ham alohida ta‘kilab o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar: ccAnnotation.** The article illustrates that information is provided about Said Ahmed's work "Lost and Found", which consists of memoirs written about the life events of his valuable and respected teachers, friends, brothers and students. The article is about Abdulla Qahhor, the famous writer who invited Said Ahmed to the world of literature. In the article, the influence of such a great master of words as Abdulla Qahhor on the path of Said Ahmed's creativity is also emphasized.

**Key words:** essay, memory, memoir, What I lost and what I found, man of literature, mirage.

**Аннотация.** В статье приводится информация о произведении Саида Ахмеда «Потерянные и найденные», которое состоит из воспоминаний, написанных о событиях из жизни его ценных и уважаемых учителей, друзей, братьев и учеников. Статья посвящена Абдулле Каххору, известному писателю, пригласившему Саида Ахмеда в мир литературы. В статье также подчеркивается влияние такого великого мастера слова, как Абдулла Каххор, на путь творчества Саида Ахмеда.

**Ключевые слова:** очерк, память, мемуары, Что я потерял и что нашел, литератор, мираж.

**Kirish.** Taniqli yozuvchi, o‘zbek adabiyotining zabardast vakili Said Ahmad ko‘ngli keng, saxiy ijodkoridir. Said Ahmad o‘zbek adabiyoti uchun o‘chmas bir xotira yozib qoldirdi. U yaratgan “Yo‘qotganlarim va topganlarim“ xotira kitobida o‘zbek adabiyotining serqirra ijodkorlari haqida ijodiy va shaxsiy ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan. U yaratgan bu asarida har bir ijodkor uchun, uning shaxsiyatini yoritib bera oladigan sarlavhalar tanlagan. Said Ahmad o‘zi uchun butun umr ustoz deb bilgan ijodkorlardan Oybek haqidagi yodnomasiga “Shu‘la”, G‘afur G‘ulom haqida “Yelkasini payg‘ambarlar silagan shoir”, Abdulla Qahhor haqidagi esdaliklariga “Yelkasini haqiqat silagan ijodkor”, tengdoshlari, yaqin do‘stlari haqida yozilgan xotiralarga Maqsud Shayxzoda haqida yozgan xotiralarga “Dilbar shoir edi u”, Mirtemir uchun “Uyqudagi malikalar” kabi nomlar bilan esdaliklar yozib qoldirgan. Bu nomlar bir qaraganda, kitobxon uchun tushunarsiz bo‘lsa-da, asarni o‘qish jarayonida aynan bu sarlavhalar aynan shu ijodkorlar uchun ekanligini anglab yetasiz.

Adibning ustozlari Abdulla Qahhor haqida yozganlarini o‘qir ekanmiz, ijodkorning shunday bir ijod kishisi haqida yozishi oson kechmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Said Ahmadning bu yodnomasini o‘qiganimizda uning aynan adabiyotga kirib kelishi uchun turtki bo‘lgan narsa Abdulla Qahhor hamda G‘afur G‘ulom hikoyalari ularning ijod olami sanalgan. (Said Ahmad Abdulla Qahhor hikoyalarini o‘qib, yozuvchi bo‘lish istagi paydo bo‘lgan). Said Ahmad tengqurlari ichida bilimga chanqoq, tirishqoq bo‘lganligi bilan ajralib turadi. O‘n olti yoshga kirgan vaqtida o‘zi uchun aynan bir kasb tanlash kelganligini anglab yetadi. Artist bo‘lishni xohlaydi. Hamza teatrida kunni kech qiladi. Hamdamiy ismli taniqli rassomning ustaxonasini supurib har xil suvratlar chiza boshlaydi, rassom bo‘lish niyatida. Fotograf bo‘lish istaklari ham

bo'ladi. Shifokor bo'lish uchun medtexnikumda ham o'qiydi. Darbozlar arqonini sudrab darboz bo'lmoqchi ham bo'ladi. Ammo Said Ahmadni adabiyotdek bir ijod olami, sahnasi kutayotganidan hali xabarsiz edi.

Nihoyat 1936-yilda Said Ahmad ilk bor adabiyot olamida Abdulla Qahhordek yozuvchini ijod mahsuli bilan qiziqib, uni asarlarini qo'lga oladi. "1936 yili qo'limga Abdulla Qahhorning hikoyalar kitobi tushib qoldi. O'qib ko'rdim...Yana o'qidim. O'qiyverdim...Birdan yozuvchi bo'lish havasi dilimga tushdi. Yozib ko'rdim. Sira hikoyaga o'xshatolmadim. E bu ham bo'lmadi deb qalamni uloqtirdim. Ertasiga yana yozuvchi bo'lgim kelaverdi. Yana yozdim.Yana bo'lmadi, indiniga yana yozuvchi bo'lgim kelaverdi. Bu galgi qarorim qat'iyroqqa o'xshardi. Kechasi ham, kunduzi ham yozaverdim. Besh-o'n kun mashq qilgandan keyin endi yozuvchi bo'ldim deb "Ishqiboz" degan hikoyamni qo'ltiqib "Mushtum" jurnali redaksiyasiga bordim." Said Ahmad "Yo'qotganlarim va topganlarim"2019-yil [1. 93]. Ha aynan Said Ahmaddek ijodkorning adabiyot sohasiga qadam qo'yishi uchun sababchi bo'lgan inson bu shogirdlariga nisbatan talabchan inson Abdulla Qahhoridir. Lekin hali Said Ahmad havasmand bir yozuvchi ekanligini, yillar davomida Qahhor 'chig'iriqlaridan o'tgandan so'nggina anglab yetgandi. Uning hikoyalari gazeta, jurnal sahifalarida chop etila boshlagan bo'lsa ham, u o'zini yozuvchi sanay boshlagan bo'lsa-da, hali oldinda bu yosh Said Ahmadni Abdulla Qahhordek chinakam so'z zargari, mahoratli ijodkorning ayovsiz imtihoni kutib turganidan bexabar edi.

Adabiyot olamida shunday yetuk ijodkor bo'lishi, nafaqat adabiyot olami balki, shaxsiy hayotda ham Abdulla Qahhorning Said Ahmadga ta'siri kuchli ekanligi namoyon bo'ladi. Said Ahmadni adabiyot olamiga boshlab kirgan, uning shu sohaga qiziqishi,uni adabiyotga boshlab kirgan ustoz "Sarob" romani edi. Said Ahmad uchun butun dunyoda "Sarob"ga teng keladigan kitob yo'q edi. Ammo har davrda adabiyotni tushunmaydigan, yaxshi yozuvchi, ijodkorlar ijodini ko'rolmaydigan kimsalar bo'lgani kabi bir adabiyotshunos "Sarob" romani haqida tanqidiy maqolalar e'lon qila boshlaydi. Maqola muhokamasida Abdulla Qahhorga qarshi bir qancha tuhmatlar qiladi. "Abdulla Qahhor millatchi. Saidiy obrazi orqali o'z o'tmishini yozgan, u o'z o'tmishiga tupurishi kerak edi, deb da'vo qiladi. Ammo haqiqat yuzaga chiqadi.G'afur G'ulom kabi adabiyot kishilari maqola asossiz ekanligini ta'kidlaydi. Maqola xato yozilgan ekanligi isbotlanadi. Muhokama yakunida Abdulla Qahhorga so'z beriladi. U bu maqoladan ham ko'ra unga aytilgan yuqoridagi so'zlarga juda ham jahli chiqqan va unga shunday so'zlar bilan javob bergan. "Men bir temirchining o'g'liman, bolaligim dam bosish bilan o'tgan. Mening tupuradigan o'tmishim yo'q. Og'zimda qanchaki, tupuk yig'ilib qolgan bo'lsa, shu gapni aytgan odamni basharasiga tupuraman! [1]." Said Ahmad uchun "Sarob" romanining oqlanishi juda ham katta bir xursandchilik edi. Said Ahmad yozgan xotiralarida "Sarob" romanini yod bilganini so'zma-so'z ayta olishi mumkinligini, bu xotiralarni yozayotganda ham uni so'zma-so'z ayta olishi mumkinligi haqida aytib o'tgan. Said Ahmad A. Qahhor haqida yozgan xotiralarida yana bir muhim ma'lumotni berib o'tgan. Uning yozishicha, Abdulla Qahhor haqida yozganlarida, hech qanday xat hujjatga qaramasdan misollarni ham kitobdan ko'chirmay, jonlantirgan. O'ttiz besh yil davomida orqasidan soyadek ergashib yurgan, ellik yil kitobini qo'lidan qo'ymay safarlarda ham olib yurgan, hayotda yuz bergan ham quvonchli, ham ko'ngilsiz damlarida yonida sirdosh, dardkash bo'lgan Abdulla Qahhor shaxsiyati Said Ahmad xotiralarida muhrlanib qolgan. Said Ahmad keltirgan quyidagi jumlar ularning haqiqiy ustoz shogird bo'lganligining yaqqol dalilidir. Bu keltirilgan satrlarda inson yuragining qaysidir burchagini titratib yuboradigan Qahhorona satrlarni kuzatishimiz mumkin.

Mana shu satrlarni aynan keltirmoqchiman. "Talant qanchalik katta, qanchalik qudratli bo'lmasin, har nechuk yuzada bo'lmaydi, konga o'xshash yerning qarida bo'ladi. Bu kon talantni qazib olish uchun avvalo katta aql, undan keyin katta bilim, matonat, kuch-g'ayrat, bularning ustida dard bo'lishi kerak." Abdulla Qahhor aynan ana shu satrlarni o'zi uchun aytgandek, u o'zi

aytgan shunday talant egasi edi. U o'zi aytib o'tgan xususiyatlarini yuzaga chiqara olgan ijodkor edi. Unda bilim ham, aql ham, kuch va matonat va albatta dard bor edi. Said Ahmad ijodini kuzatganimizda ham aynan shu kabi fazilatlarni uchramiz. Jahon adabiyotiga nazar tashlar ekanmiz, undagi mashhur yozuvchilardan biri Anton Chexov ham quyidagi gaplarini aynan Abdulla Qahhor uchun aytgandek, uning suvratini chizishga uringandek tuyuladi. " Insonning qiyofasi ham, libosi ham, qalbi ham chiroyli bo'lishi kerak".

Haqiqatdan Abdulla Qahhor chiroyli adabiyot kishisi edi. Uning qalbida insonga, tabiatga, jamiki mavjudotga buyuk muhabbat jo'sh urib turar edi. Yaxshi qo'shiqlarni tinglashni, ularni tebranib tinglashni yoqtirardi. Yuzlarida nur yog'ilib turadigan, butun bir koinot yutug'idan o'z yutug'i kabi quvonadigan. Bularni o'ziniki kabi qabul qila oladigan ajoyib bir inson edi. "Abdulla Qahhor o'zbek adabiyoti tarixida talabchanligi, adabiy hodisalarga jiddiy munosabatda bo'lganligi bilan mashhur. U o'z davrida barcha yoshu-keksa adiblar ijodiga doimo yuksak talab va ma'suliyat bilan qaragani ma'lum. Adib o'zini shunga haqli sanagani aniq. Zero, yozuvchi o'z ijodiga ham xuddi shu zaylda shavqatsiz qaragan" [1]. O'zbek adabiyotidagi bu serqirra ijodkor shogirdlari va hamkasblari bilan bir qatorda o'z ijodiga ham doimo tanqid bilan qaragan. Adabiyotshunos olim Bahodir Karimning "Bir taqriz talqini" nomli Abdulla Qahhor haqidagi maqolasida bu haqida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin. Ushbu maqolada Abdulla Qahorning "hayot haqiqatidan badiiy to'qimaga" nomli maqolasi keltirib o'tilgan. Maqolada aytilishicha, Abdulla Qahhor ijodida saksonga yaqin hikoya yozganligini, ammo 1957-yilda chiqqan tanlangan asarlarida ushbu hikoyalardan faqat 26-tasini kirgizishga loyiq hikoyalar ekanligini aytib o'tgan. Bundan ko'rinib turibdiki, Abdulla Qahhor nafaqat shogirdlari balki, o'z ijodining ayovsiz tanqidchisi bo'lgan. Shunday talabchan ustozning shogirdi Said Ahmad ijodida ustozining uslubini ham uchramiz. Said Ahmadning ustozlari Abdulla Qahhor, Oybek, G'afur G'ulom haqida yozgan xotiralari inson qalbini larzaga solar darajada zavq-shavq, ba'zan esa g'am-anduhga to'ldiradi. Xotira kitobini o'qir ekanmiz xuddi biz ham Said Ahmad bo'lib, ustozlar bilan hamnafas bo'lamiz. Ular bilan yoma-yon yurgandik his qilamiz o'zimizni, ular yurgan safarlarda biz ham yuramiz, yutuqlaridan quvonamiz. Do'stlar bilan o'tgan qiziqarli, maroqli suhbatlarda qatnashamiz. Ular bilan birga yashaymiz. Shunday bir ajoyib ruhda, o'tkir qalam bilan kitobxonni o'ziga sehrlab olar darajada mahorat bilan yozilgan bu asar. Said Ahmad ustozlari haqida xotiralarini o'zi aytganidek, bichib-to'qimasdan, yo'q fazilatlarni bor qilmasdan, aniq va rost yozgan. Uning ijodidagi bu o'lmas asar, uning ijodiy faoliyatida o'chmas bir sahifa bo'lib qoladi. Said Ahmad ustozlari haqida yuragida nima bo'lsa, hammasini faqat haqiqatni yozdi. Ustozlari umri faqat olqishu, bayram tantanalarda o'tmaganligini, oddiy bir inson sifatida chekkan g'am-anduhlari haqida ham yozgan. Ayniqsa, Abdulla Qahhor haqida uning ta'sirchan inson ekanligini, alohida ta'kidlab o'tadi. Ustozining oddiy narsadan ko'ngli tog'dek bo'lib, nohaqlikdan esa pinhoni azob chekishini aytib o'tgan. Dard-alamlarini ichiga yutadigan, bundan faqatgina o'zi azoblanadigan inson bo'lganligi ko'p bora ta'kidlagan.

Xotira kitobining "Saboq" sarlavhali bo'limida ham Abdulla Qahhor haqida ajoyib yodnomalar yozilgan. Unda Abdulla Qahorning o'zbek adabiyotining kelajagi uchun qanchalik qayg'urganligi, adabiyot taqdiridan qanchalik qayg'urgani xavotirda ekanligi aytib o'tilgan. Abdulla Qahhor haqida shodligini ham alamini ham oddiygina qilib aytmasdi, eshitgan odam hech qachon esdan chiqara olmaydigan darajada ta'sirchan qilib gapirardi dedi. Asarda keltirilgan aynan Abdulla Qahhor tilidan aytilgan so'zlar bunga yaqqol misol bo'la oladi. " Yaxshilikni bilmaydigan bir yozuvchi to'g'risida, shunday degan edi: "bu odam to'nkarilib qolgan qo'ng'izga o'xshaydi, o'nglab qo'yadiganlarning qo'lini sasitadi". Jurnal yoki gazetani o'z saviyasiga moslab olgan redaktorlar to'g'risida bunday degandi: " Redaksiya eshigini o'z bo'yniga moslab qurib olgan, katta yozuvchilar bu eshikka sig'maydi", Talantsiz yozuvchilar to'g'risida: " Bu odam adabiyotga eshikdan emas, o'g'ri mushukka o'xshab tynukdan tushgan", " Manavinisini

ko'chadan o'tib ketaturib , oyog'i toyib soyuz eshigining ichkarisiga yiqilgan. Haligacha chiqib ketolmaydi” , “ O'zi yozolmaydi, adabiyotda men ham borman, deb majlislarda ovozi chiqazib turadi”, derdi. Adabiyotga hadeb aralashaveradigan ba'zi bir lavozimli kishilar to'g'risida kuyib gapirardi. “ Nima uchun jarrohga bemorning u yeridan emas, bu yeridan kes demaydi. Nima uchun uchuvchiga samolyotning u muruvvatini emas, bu muruvvatini bura, demaydi, nima uchun arqondagi darvozga, manavinaqa yurish kerak, deb ko'rsatmaydi. Adabiyotni oson ish deb o'ylasa kerak, hadeb ana undoq yoz, mana bundoq yoz, deb o'rgataveradi”.

Haqiqatdan ham Abdulla Qahhorda so'zni tanlash, ifodalash borasida o'zgacha bir san'at borligini ko'ramiz. Adabiyot va san'atni sevgan bu inson nafaqat adabiyot sohasida, balki san'atning barcha sohalariga qiziqqan ijodkordir. Teatr sahnalarining ishqivozi bo'lgan, tomoshalarni xush ko'radigan Abdulla Qahhor. Bu sohada ham anchagina talabchan bo'lgan. Hamza nomidagi akademik teatrda bir pyesa qo'yilgan. Asar hech kimga ma'qul bo'lmagan. Tomoshabin zerikib ketganligidan zalni tark eta boshlagan. Abdulla Qahhor ham bu pyesani tomosha qilib shunday fikr bildirgan. “\_\_\_\_\_ Bu asar teatrni boy qilishi mumkin. Tomoshabindan kirishiga ham, chiqib ketishiga ham pul olish kerak. Ayniqsa, tomosha tugamasdan chiqib ketadiganlardan qancha so'rasang beradi” [1].

Abdulla Qahhor sohasining haqiqiy insoni bo'lgan, bilimdoni bo'lgan. Sohasining har bir bo'limini puxta egallagan. Uning tarjimonlik sohasida olib borgan ishlari ham alohida tahsinga loyiq. U mahoratli tarjimon ham bo'lgan. Rus klassik adabiyotining chinakam muxlisi bo'lgan. N. Gogol, A. Chexov, L. Tolstoy, asarlaridan namunalar tarjima qilgan. Ammo o'zini hech qachon tarjimon emas, yozuvchi deb bilgan. U o'zining “Tarjimachilik tashvishlari” maqolasida bu haqida shunday fikrlarni aytib o'tgan. “Ha, N. Chukovskiy tarjima san'atini sehrgarlik deb ataganda, haq. Lekin, deb davom etadi u, agar tarjima so'zlarning ma'nosinigina emas, ular ifodalagan eng nozik tuyg'ular va kechinmalarni ham yetkazib berolsagina, chinakam sehrgarlik bo'lib hisoblanadi [2]. Ha, har bir yirik san'atkor milliy madaniyatni jahon adabiyotining durdonalari bilan boyitishga o'zining butun kuch-quvvatini sarflashi kerak. Badiiy tarjima yozuvchining o'zi uchun ham katta mahorat maktabi bo'ladi. Bularning bari to'g'ri gaplar”. “Literaturnaya gazeta”, 1962yil 17 mart”. Abdulla Qahhor dastlab rus adabiyotidan 1931-yilda F. Gladkovning “Olovli ot” romanini, keyinchalik A. Serafimovichning “Temir oqim” romanini katta mahorat bilan tarjima qilgan. Keyinchalik A.P. Chexovning “Kashtanka” hikoyasini, A.S. Pushkinning “Kapitan qizi” qissasini, Gogolning “Uylanish” pyesasini, N. Virtaning “Shimoliy front: hikoyalar, ocherklar, portretlar”ini, B. Gorbatoyning “Aleksiy Kulikov jangchi” asarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Serqirra iqtidor sohibi Abdulla Qahhor umrining so'ngi oylarida ham, Said Ahmaddek sodiq shogirdining yonida bo'ldi. 1967-yilda A. Qahhor 60-yilligi bo'lib o'tadi. Bu vaqtda A. Qahhor sog'ligida muammolarga duch kela boshlaydi. Umidsizlikka o'xshagan bir mung uning kayfiyatida ko'rinib qolgandi. Farg'ona yo'lidagi tog'larga tikilib inson umrining naqadar qisqa ekanligini anglagan ijodkor adabiyotimizning yorqin ijodkori A. Qahhor edi. Uning irodasi, yashashga bo'lgan ishtiyoqi shunchalik mustahkam ediki, hali qilishi kerak bo'lgan ishlari haqida tinimsiz gapirardi [3]. Majlislarda gap tortishib o'tkazgan umri haqida bekorchi sarflagan vaqtlari haqida kuyinib gapirib berardi. Shuncha vaqt davomida qanchadan-qancha asarlar, hikoyalar yozish mumkinligi haqida qayg'urardi [4]. Bunday afsuslanib aytgan gaplarini tinglagan Said Ahmad o'zi uchun qadrlil bo'lgan insoni, ustozining ko'z oldida so'nib borayotganligini, adabiyot shunday bir mahoratli adabiyotshunosidan, yozuvchi ijodkoridan ayrilayotganinni kuzatib turish juda ham og'riqli, dardli edi. Har bir ijodkor yozuvchi qayerda ijod qilmasin ulkan zafarlar qurshovida qolmasin, uning uchun o'z tug'ilib o'sgan ona yeri doimo aziz va mehrga to'la, mehrlil dargoh bo'lib qolaveradi. Abdulla Qahhor uchun ham o'zining tug'ilib o'sgan yeri Asht qishlog'i bir umrga qadrlil maskan bo'lib qoldi. U yozgan hikoyalarda ko'pincha o'zi tug'ilib o'sgan Asht qishlog'i haqida yozardi. 1968-yilning bahor oylari. Bog'larda gullar ochilgan qushlar bahor

kuylari bilan jo'r bo'lib sayrashar, ularning nag'masi avj pardasiga chiqqan bir go'zal onlarda o'zbek adabiyoti bir o'tkir qalam sohibidan ayrilish arafasida edi. Said Ahmad uchun bu juda ham katta yo'qotish bo'ldi. Ustozidan xabar olish uchun borgan Said Ahmadga A. Qahhor "Tanlangan asarlar" ning birinchi jildini berdi. "–Shoir, - dedi Abdulla aka menga qarab. -Bundan olti yil oldin mendan "biron kitobingizga yozib bering" deb so'ragan edingiz o'shanda bermagan edim. Mana, endi oling. U shunday deb kitobni qo'limga berdi. Nima yozgan ekan deb darrov ochib o'qidim [5]. "Yaxshi, lekin meni ko'p kuydiragan sho'x va bevosh shogirdim Saydahmadga A.Qahhor". Said Ahmad. "Yo'qotganlarim va topganlarim". Adabiyotda o'z o'rnini topguncha tinimsiz tanqidga uchragan "Tortiq"dan "Ufq" gacha Abdulla Qahhor etagidan tutib borgan. Bu olis, mashaqqatli yo'lda necha marta qoqilib necha marta qad rostlagan, maqtovlardan ko'ra ta'nalarni ko'p eshitgan Said Ahmad bugun ushbu ta'na va dashnomlar uchun ustoziga ming-minglab tashakkurlar aytdi. A.Qahhorning "Ufq" triologiyasi uchun bergan bahosi adabiyot yo'lidagi bergan bir oq fotihasi bo'ldi.

Abdulla Qahhordek yozuvchining imtihoni, chig'iriqlaridan o'tgan, zuvalasi pishiq yozuvchi bo'lgan Said Ahmad ustozini butun umri davomida xotirlab yurdi. Nihoyat Abdulla Qahhor Said Ahmadni shogirdim deb atadi. "Sakkizinchi aprel kuni Abdulla aka samolyotda moskvaga ketdi. Uni samolyotga nosilkada olib chiqqan edilar. Kibriyo opa : "Domlajon tufli olishni unutibmiz-ku" deganda Abdulla aka: "Qaytishda oyoq kiyimi kerak bo'lmas", debdi". Balki, ushbu so'zlar serqirra ijodkor, o'zbek o'g'loni Abdulla Qahhorning ona yurti, ona tuprog'ida aytgan oxirgi so'zlari bo'lgandir. Said Ahmad ustozini, yelkadoshi haqida xotiralarini yakunlar ekan shunday xotirlaydi [6]. "Har gal yozuv stoli yoniga o'tirar ekanman, qo'limga qalam olib birinchi satrlarni bitar ekanman, hamon Abdulla Qahhor yelkamdan qarab turganga o'xshaydi. Uning sinchkov nigohi meni umr bo'yi ta'qib qilib keladi. Men ham yozganlarimning hammasini xayolan uning nazaridan o'tkazib turaman.

Yelkasini haqiqat silagan, har qanday vaziyatda ham faqat haqiqat uchun kurashgan ijodkor Abdulla Qahhor ijodi va hayoti bugungi kunda ham kitobxonlar uchun katta bir qiziqish bilan mutoala qilib kelinmoqda.

"Yo'qotganlarim va topganlarim" xotira kitobi adabiyotshunoslar uchun ulkan bir ijod maktabi hisoblanadi. Undagi har bir ijodkor hayoti va ijodi uchun ajratilgan sarlavhaning o'zida bir ma'no bor.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Said Ahmad Yo'qotganlarim va topganlarim sano standart nashr 2019 yil
2. Bahodir Karim Ruhiyat alifbosi , Gafur Gulom nashriyoti Toshkent 2018
3. Quronov. D.Adabiyot nazariyasi- Toshkent: Akadem nashr-2019
4. Umurov H.Adabiyot nazariyasi-Toshkent: Sharq,2002
5. G'afurov I.Tuganmas umr yo'llari.Prozaning shoiri. –Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti,1981
6. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari.-Toshkent:-2005